

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

14«9»2022 yil.

569-11-169-OB/2022-son

Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari **D.Xodjaeva** bundan buyon bir tomondan «Sotib oluvchi» deb yuritiladi, nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomondan «**HABIBI TRADE**» MCHJ rahbari **I.Muminov** nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI.

- 1.1.Sotuvchi Sotib oluvchiga ushbu shartnomaga asosan mavsumiy gullarni etkazib beradi.
- 1.2.Sotib oluvchi esa o'z navbatida ushbu tovarlar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida «Buyurtmachi» esa olib kelingan mahsulot uchun to'lovlarni belgilangan shartlar asosida Sotuvchigato'laydi.

II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	So'mmasi
1	Vodoemulstiya (oq)	Kg	1500	5 966	8 949 000
2	Vodoemulstiya (molochniy)	Kg	5062	7 991	40 450 442
3	Vodoemulstiya (appelsin)	Kg	5063	7 990	40 453 370
	Jami:				89 852 812

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi **89 852 812 so'm** (Sakson to'qqiz million sakkiz yuz ellik ikki ming sakkiz yuz o'n ikki) so'm.

III.HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. Sotib oluvchishartnoma imzogandan so'ng yetkazib berilishilozim bo'lgan mahsulot umumiy qiymatining **30 foizini**, yani **26 955 843.60 so'mni** oldindan to'laydi. Mahsulotlar to'loviningqolgan qismini,yani **70 foizini** esa Sotib oluvchi tomonidan mahsulotlar to'liq etkazilib berilgandan so'ng **30 (o'ttiz)** kalendarkun ichida to'liq to'lab beriladi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

4.1. Sotuvchining huquq va majburiyatlari:

4.1.1.Sotib oluvchi tomonidan mahsulotni umumiy narxning **30 foizi** Sotuvchining hisobi raqamiga oldindan tolangandan song Sotuvchi Sotib oluvchini tovar bilan ta'minlaydi.

4.1.2 Sotib oluvchiga tovarni tegishli xujjatlar asosida belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

4.1.3 Sotuvchi Sotib oluvchiga qulaylik yaratish maqsadida tovarni o'z transport vositalarida Sotib oluvchining manzilgohiga yetkazib beradi. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati Sotuvchining zimmasida qoladi.

4.1.4 Sotuvchining transport vositasida yetkazilgan tovarning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan Sotib oluvchi Sotuvchining vakili ishtirokida tovar yetkazilgan kunda dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad

xisobi Sotuvchi tomonidan 3 kun muddat ichida to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

4.2 Sotib oluvchining huquq va majburiyatlari:

4.2.1. Sotib oluvchi sotuvchidan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovar uchun umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, tovarni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

4.2.2 Sotib oluvchi Sotuvchidan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga

javob beradigan hamda sifati sertifikatiga ega bo'lgan tovarlarni talab qilish xuquqiga ega. Sotib oluvchi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati fssortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki

xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa sotib oluvchi (tovarlarni ishlarni xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizmiqdorida jarima undirib olishga agar (tovalar, ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

V. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlarning milkiy jabobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5.2. «Sotuvchi» tomonidan yetkazib berilgan tovar uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi Sotib oluvchi tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda Sotuvchiga penya to'laydi.

5.3 Sotuvchi tomonidan Sotib oluvchiga berilgan buyumlarni sotib oluvchi ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda Sotib oluvchidan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) tovar summasining 5 foizi, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi.

5.4. Sotuvchi tomonidan sotib oluvchiga yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlarni yetkazib berishni Sotuvchi asossiz ravishda kechiktirsa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 25-moddasiga muvofiq kechiktirilgan har bir kun uchun Sotuvchi Sotib oluvchiga yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

VI. FORS-MAJOR XOLATLARI

6.1. Taraflardan hech bir boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma buyicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi epidemiya holati blokadaembargotabiyofatlar) bilan bog'liq xolatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Sotib oluvchi joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR.

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishi oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytida bevosita o'zi yoki uning ijro organlari, mansabdor shaxslar va xodimlar tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligi, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligi, taklif etilmaganligi, ularni berishga vada qilinmaganligi, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligi (kelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligi) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Ushbu xolat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni xamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarlilklarni bartaraf qilish bo'yicha o'qilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu tarif shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

IX. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI.

9.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarfdan bir nusxada saqlanadi.

9.2. Shartnoma hududiy G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan va taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va **2022 – yil 31-dekabr** kunigacha amal qiladi.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

«HABIBI TRADE» MCHJ	“Farg’ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi”
Manzil: Toshloq tuman, Hoji ota ko'chasi 77 uy	Manzil: Farg’ona shahar Mustaqilik ko'chasi 3-uy
Tel/faks:	Tel/faks: +99895 400 0105
X/r: 20208000205563383001	INN 200 145 479 OKOHX 90290
INVEST Finance bank Fargona filiali	X/r: 2340 2000 3001 0000 1010
MFO: 01128	Markaziy bank Toshkent XKKM
STIR: 309826325	MFO: 00014
QQS tolovchining kodi:	STIR: 201 122 919 SHR 100022860304017065100110009

Rahbar



I. Muminov

Rahbar

D. Xodjaeva



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.

DILFUZA XODJAYEVA
AXMADALIYEVNA

Imzolangan sana

14 сех 2022 11:48

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA
HUQUQIY XULOSA**
№ BT2627003535

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: OLDI-SOTDI SHARTNOMASI.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va “E-huquqshunos” elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Farg’ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi va «HABIBI TRADE» MCHJ o‘rtasida ishlab chiqilgan va 2022-yil 12-sentabr kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif: Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

X U L O S A :

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



X.Soburov



«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Фаргона шаҳар
Ободонлаштириш бошқармаси
бошлиғи
Д.Хаджаева

14.09.2022 йил

Фаргона шаҳри

Фаргона шаҳар Ободонлаштириш бошқармасига қурилиш моллари (водоэмульция) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар учун №142178 лот рақамли эълоннинг 03 сентябр 2022 йил кунги электрон баённомаси муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси

БАЁННОМА ХУЛОСАСИ

1. Фаргона шаҳар Ободонлаштириш Бошқармасига Қурилиш моллари (водоэмульция) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар учун маҳаллий бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби ва харажатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Фаргона шаҳар Ободонлаштириш Бошқармасига Қурилиш моллари (водоэмульция) сотиб олиш билан боғлиқ харажатлар 03 сентябр 2022 йил кунги тузилган харид комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларни баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги «**Давлат харидлари тўғрисида**»ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандарига асосан **etender.uzex.uz** махсус ахборот порталидаги 05 сентябр 2022 йил кунги тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада қолиб қолган «Хабиви Трейд» МЧЖ билан белгиланган тартибда 89 852 812 (Саксон туккиз миллион саккиз юз эллик икки минг саккиз юз ун икки) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

Д.Ходжаева _____ Бошқарма бошлиғи

Б.Ганиев _____ Бош ҳисобчи

Н.Мамаджонов _____ Техназор

У.Умаров _____ Участка устаси

С.Таджибаев _____ Омборчи